

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SEYSMIK XAVFSIZLIGINI
TA'MINLASH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-
TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

So'nggi yillarda mamlakatimizda seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohalarini rivojlantirish hamda soha tashkilotlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish bo'yicha keng ko'lamli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda bu sohalardagi islohotlarni izchil davom ettirish, aholining seysmik xavfsizligini ta'minlashning yangi usullarini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohalarida islohotlarning aniq manzillilagini ta'minlash, sohalarga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini 2025-yilgacha takomillashtirish konsepsiysi (keyingi o'rnlarda — Konsepsiya) hamda uning maqsadli ko'rsatkichlari va indikatorlari **1** va **1a-ilovalarga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini 2025-yilgacha takomillashtirish konsepsiyasini 2022-2023-yillarda amalga oshirish "yo'l xaritasi" (keyingi o'rnlarda — "yo'l xaritasi") **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki, Konsepsiyanı 2024-2025-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" Vazirlar Mahkamasi tomonidan alohida tasdiqlanadi.

2. Belgilansinki, Konsepsiya hamda uning maqsadli ko'rsatkichlari, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutadi:

a) seysmologiya yo'nalishi doirasida:

zilzilalarning vujudga kelish mexanizmi va tabiatining hamda zilzila darakchilarining turli geodinamik jarayonlarda namoyon bo'lishini tadqiq qilish mexanizmini takomillashtirish;

hududlarni makroseysmik ballarda va muhandislik ko'rsatkichlarda seysmik mikrohududlashtirish bo'yicha onlays-xaritalarni ishlab chiqish;

turli darajadagi tektonik yer yoriqlarining o'rta masshtabdagi xaritasini yaratish va ularning seysmik potensialini baholash;

b) bino va inshootlarning zilzilabardoshligini ta'minlash yo'nalishi doirasida:

yakka tartibdagi uy-joylarning zilzilabardoshligini ta'minlash bo'yicha zarur choralarni ko'rish;

bino va inshootlar hamda suv omborlari to'g'onlarining zilzilabardoshlik darajasini doimiy kosmik monitoring qilish tizimini joriy etish;

v) seysmologik kuzatuvlar tarmog'ini takomillashtirish yo'nalishi doirasida:

avtomatlashtirilgan kompleks-prognostik stansiyalarni ko'paytirish hisobiga respublika hududini to'liq monitoring qilish imkoniyatini kengaytirish;

milliy seysmik kuzatuvlar tarmog'ining xalqaro seysmik kuzatuvlar global tizimiga kiritilgan stansiyalar bilan doimiy aloqalarini ta'minlash;

g) seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruva organlari faoliyatini muvofiqlashtirish yo'nalishi doirasida:

seysmologiya sohasida ilm-fan va ta'limni rivojlantirish hamda aholi va davlat organlarini zilzilada harakat qilishga tayyorlash faoliyatini tartibga solish;

respublika hududida qurilayotgan bino va inshootlar, suv omborlari va gidrotexnika inshootlari zilzilabardoshligini nazorat qilish tizimini takomillashtirish.

3. Quyidagilar:

Konsepsiya va "yo'l xaritasi"da belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan davlat organlarining birinchi rahbarlariga shaxsiy mas'uliyat yuklatilsin;

Oldingi tahririga qarang.

O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi (keyingi o'rnlarda — Kengash) davlat organlari tomonidan Konsepsiya va "yo'l xaritasi"da belgilangan chora-tadbirlarning sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish uchun mas'ul etib belgilansin.

(3-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi PF-72-soni Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.05.2023-y., 06/23/72/0283-soni)

4. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

a) 2022-yil 1-sentabrdan boshlab respublikaning seysmik faol zonalarida yangi qurilishi rejalashtirilayotgan xavflilik omili IV toifaga mansub bo'lgan obyektlarga zilzilabardoshlik bo'yicha xulosalar berish tartibi joriy etiladi.

Oldingi tahririga qarang.

Bunda, buyurtmachi tashkilotlar loyiha-smeta hujjatlarini vakolatli organga ekspertizaga kiritishdan oldin xavflilik omili IV toifaga mansub obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ilmiy xulosalar olishga yo'naltirishga, Fanlar akademiyasi obyektlarga zilzilabardoshlik bo'yicha ilmiy xulosalar berishga mas'ul etib belgilansin.

(4-band "a" kichik bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdaggi PF-151-soni Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-soni)

Fanlar akademiyasi Qurilish vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasining seysmik faol zonalarida qurilishi rejalashtirilayotgan xavflilik omili IV toifaga mansub bo'lgan bino va inshootlarga zilzilabardoshlik bo'yicha xulosalar berish tartibini joriy etish to'g'risida normativ-huquqiy hujjat *loyihasini* ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kirtsin;

b) Fanlar akademiyasi tomonidan Respublikaning seysmik faol zonalarida joylashgan bino va inshootlar elektron texnik pasportlarining yagona integratsiyalashgan platformasidagi ma'lumotlar asosida seysmik zaif ijtimoiy soha obyektlarining ro'yxatini har yili 1-aprelga qadar shakllantirib borish hamda instrumental-texnik tekshiruvdan o'tkazish ishlarini Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda tashkillashtirish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Bunda, instrumental-texnik tekshiruv ishlari uchun mablag'lar Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rnlarda — Jamg'arma) hisobidan qoplanishi belgilansin;

Oldingi tahririga qarang.

v) 2022-yil 1-oktabrdan boshlab respublika hududidagi ko'p kvartirali uy-joylarni yillar kesimida zilzilabardoshlik bo'yicha xatlovdan o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yiladi va xatlov natijasiga ko'ra

ekspluatatsiya muddatini o'tab bo'lgan seysmik zaif va avariya alomatlari aniqlangan ko'p kvartirali uy-joylar o'rnida bosqichma-bosqich yangi uy-joylar qurish bo'yicha takliflar mahalliy ijroiya hokimiyati organlariga kiritib boriladi.

(4-band "v" kichik bandining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldag'i PF-28-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.02.2024-y., 06/24/28/0099-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Bunda, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi ko'p kvartirali uy-joylarni zilzilabardoshlik bo'yicha xatlovdan o'tkazishga mas'ul bo'lgan davlat boshqaruvi organi etib belgilansin;

(4-band "v" kichik bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdag'i PF-151-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son)

g) 2023-yil 1-maydan boshlab suv omborlari to'g'onlarining zilzilabardoshligini doimiy kosmik monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yilib, mazkur yo'nalishdagi mas'ul davlat organlari kosmik suratlar hamda ishlov berilgan ma'lumotlar bilan ta'minlab boriladi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi mazkur tizimni yo'lga qo'yish uchun mas'ul davlat organi etib belgilansin.

5. Fanlar akademiyasi:

2022-yil 1-iyulga qadar seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi mutaxassislar hamda ilmiy doira vakillarini keng jalb qilgan holda Seysmik xatarni kamaytirish dasturini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kirtsin;

2022-yil 1-avgustga qadar seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasi muammolarining ilmiy yechimiga qaratilgan takliflarni (tematik mavzularni) shakllantirib, Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etsin;

2023-yil 1-fevralga qadar Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti olimlari bilan hamkorlikda rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan makroseysmik shkalalarni o'rganib chiqib, "UMS-22" milliy makroseysmik shkalani ishlab chiqsin;

2022 — 2025-yillar davomida Andijon, Toshkent, Guliston, Nurafshon, Namangan, Farg'ona, Samarcand, Jizzax, Buxoro, Navoiy, Qarshi, Termiz, Nukus, Urganch shaharlarining raqamlashtirilgan seysmik mikrohududlashtirish xaritalarini ishlab chiqsin.

6. 2023-yil 1-apreldan boshlab suv omborlari to'g'onlarida seysmik xavfni oldindan prognoz qilish va baholash amaliyotini joriy qilish maqsadida:

kosmik monitoring doirasida simulatsion dastur orqali zilzila natijasida to'g'on o'pirilishi oqibatida suv bosishi mumkin bo'lgan respublika hududlarining vizual 3D modellarini ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yilsin;

suv omborlari to'g'onlari o'pirilishi oqibatida qutqaruв ishlarini tashkillashtirishida tegishli vazirlik va idoralarni zarur kosmik suratlar hamda ishlov berilgan ma'lumotlar bilan ta'minlash tizimi joriy etilsin.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi Fanlar akademiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi va Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda 2023-yil 1-fevralga qadar mazkur amaliyot va tizim ishga tushirilishini ta'minlasin.

7. Belgilansinki, 2023-yildan boshlab respublikaning seysmik faol zonalarida balandligi 9 qavat yoki undan yuqori bo'lgan seriyali qurilishi rejalashtirilgan yoki tanlab olingen bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish, sifatini ta'minlash hamda kamchiliklarni oldindan bartaraf etish maqsadida vibrodinamik uskuna yoki zamonaviy raqamlashtirilgan instrumental asbob-uskunalar yordamida sinov va tekshiruv o'tkazib boriladi.

Bunda, sinov va tekshiruvlar qurilish ishlariga mas'ul bo'lgan buyurtmachi tashkilotlar tomonidan o'tkazilishi belgilab qo'yilsin.

8. Qurilish vazirligi 2022-yil 1-dekabrga qadar O'zbekiston sharoitida so'nggi zamonaviy usullarni o'rganib, tahlil qilgan holda "Ko'p qavatli binolarni loyihalash" shaharsozlik normalari va qoidalalarini ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov natijalari asosida ishlab chiqish jarayoni bo'yicha Kengashga axborot kiritsin.

9. Transport vazirligi:

a) 2022-yil 1-dekabrga qadar:

respublikadagi barcha sun'iy inshootlarni (ko'priklar, tonnellar, estakadalar, temir yo'l ko'priklari va boshqalar) xatlovdan o'tkazsin va uning natijalarini umumlashtirib, yagona raqamlashtirilgan ma'lumotlar bazasini tashkil etsin;

aniqlangan egasiz sun'iy inshootlarni idoraviy mansubligi bo'yicha biriktirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga taklif kirtsin;

b) 2023-yil 1-martga qadar respublikadagi barcha mavjud sun'iy inshootlarning zilzilabardoshligi bo'yicha elektron texnik pasportlarni shakllantirsin hamda ularning Respublikaning seysmik faol zonalarida joylashgan bino va inshootlar elektron texnik pasportlarining yagona integratsiyalashgan platformasiga kiritilishini ta'minlasin.

10. Suv xo'jaligi vazirligi va "O'zbekgidroenergo" AJ:

2022-yil 1-avgustga qadar birinchi bosqichda 2022-2023-yillarda I va II sinfga kiruvchi 32 ta, ikkinchi bosqichda 2024-2025-yillarda III va IV sinfga kiruvchi 26 ta suv omborlarida seysmologik kuzatuvlarni olib borish uchun zarur asbob-uskunalar xaridini amalga oshirish bo'yicha asoslangan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kirtsin;

Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Fanlar akademiyasi bilan birgalikda 2023-yil 1-iyulga qadar tasarrufidagi toifalangan suv omborlari va gidrotexnika inshootlarining zilzilabardoshlik bo'yicha ekspertizasi ekspress uslubiyot asosida o'tkazilishini ta'minlasin.

11. 2022-yil 1-avgustga qadar Suv xo'jaligi vazirligi markaziy apparatida mavjud shtat birliklari doirasida seysmologik kuzatuvni doimiy tashkillashtirish bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etilsin;

Suv xo'jaligi vazirligi mazkur shtat birligiga soha bo'yicha tajribaga ega bo'lgan mutaxassis kadrni tayinlash chorasini ko'rsin.

12. Quyidagilar:

a) Kengash tomonidan tasdiqlangan reja-grafik asosida Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi suv omborlarida seysmologik kuzatuvlarni o'tkazish bo'yicha xarajatlar mahalliy budget mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilansin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari suv omborlarida seysmologik kuzatuvlarni o'tkazish uchun mablag'larni o'z vaqtida ajratib borilishini ta'minlasin;

b) Fanlar akademiyasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi Suv xo'jaligi vazirligining buyurtmasiga asosan seysmologik kuzatuvlarning o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishini ta'minlasin.

13. Shunday tartib o'rnatilsinki, 2023-yil 1-yanvardan boshlab:

a) seysmik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha davlat organlari rahbar kadrlari va xodimlarining Aholining barcha qatlamlarini

zilzilaga tayyorlashga mo'ljallangan milliy elektron platforma orqali malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari o'tkazib boriladi.

Bunda, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari rahbar kadrlarning aholiga zilzilalar vaqtida o'zini tutish qoidalarini tushuntirish, kuchli zilzilalardan talafotlarsiz chiqish hamda kuchli zilzilalarga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha ko'nikmalarini oshirishga yo'naltiriladi;

b) Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Fanlar akademiyasi:

har uch yilda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etib boradi;

milliy elektron platformaga malaka oshirish bo'yicha zamonaviy dasturlarni ishlab chiqib, kiritadi va muntazam ravishda yangilab boradi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fanlar akademiyasi bilan birgalikda 2022-yil 1-dekabrga qadar milliy elektron platformaning yuritilishi hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini o'tkazish tartibini tasdiqlasin va amalga kirtsin.

14. Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2022-yil 1-avgustga qadar aholining barcha qatlamini zilziladan oldin, zilzila vaqtida va zilziladan so'ng to'g'ri harakat qilishga mustaqil o'rgatish uchun mo'ljallangan mobil ilovani ishlab chiqsin;

2023-yil 1-iyunga qadar O'zbekiston Respublikasi aholisini zilzilaga tayyorlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlashni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kirtsin.

15. Seysmik mustahkam bino va inshootlarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish yo'nalishida malakali kadrlarni tayyorlash tizimini hududlar kesimida kengaytirish maqsadida:

2022/2023 o'quv yildan boshlab Namangan muhandislik-qurilish instituti va Farg'ona politexnika institutida "Bino va inshootlar zilzilabardoshligi" ta'lim mutaxassisligi bo'yicha kadrlarni tayyorlash amaliyoti yo'lga qo'yilsin;

Oliy va o'rta maxsus ta'llim vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda mazkur ta'llim mutaxassisligi bo'yicha qabul ko'rsatkichlarini 2022/2023 o'quv yili uchun davlat buyurtmasi parametrlariga amaldagi kvotalar doirasida kiritish choralarini ko'rsin.

16. Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi va Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab "Tarixiy obidalarning seysmik mustahkamligi" ta'lif mutaxassisligini ochish;

2022-yil 1-dekabrga qadar Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida zilzilalar ko'p uchraydigan xavfli hududlar uchun turli xil darajadagi tabiiy ofatlar ssenariylarining zamonaviy kompyuter modellarini hamda ko'rilgan zararlarni hisoblash usullarini ishlab chiqish va o'quv dasturlariga kiritish;

2022-yil 1-sentabrdan boshlab Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida "Bino va inshootlarni zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida modellashtirish" fani bo'yicha oliy ta'lif tashkilotlari professor-o'qituvchilarini va talabalari uchun intensiv kurslarni tashkil etish.

17. Quyidagilar:

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universitetida gruntli inshootlar, suv omborlarining to'g'onlari, asos va poydevorlarni zilzilabardoshlik bo'yicha zamonaviy raqamli hisoblash usullari va dasturlari (Plaxis, Ansys, Abaqus va boshqalar) yordamida baholashga mo'ljallangan "Suv omborlari va gidrotexnika inshootlarining zilzilabardoshligini baholash" o'quv-ilmiy laboratoriysi;

Namangan muhandislik-qurilish institutida bino va inshootlarning zilzilabardoshlik bo'yicha texnik holatini baholash, aktiv seysmik himoyalash usullari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishga mo'ljallangan "Bino va inshootlarni seysmik himoyalash" o'quv-ilmiy laboratoriysi tashkil etilsin.

Belgilansinki, o'quv-ilmiy laboratoriyalarning shtat birliklari "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti hamda Namangan muhandislik-qurilish institutining professor-o'qituvchilarini maqbullashtirish hisobidan jamlanadi.

Vazirlar Mahkamasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti va Namangan muhandislik-qurilish institutining asoslangan takliflariga muvofiq o'quv-ilmiy laboratoriyalarni zarur jihozlar bilan bosqichma-bosqich Jamg'arma mablag'lari hisobidan ta'minlash choralarini ko'rsin.

18. Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda seysmik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish maqsadida soha xodimlari va Kengash a'zolaridan iborat delegatsiyani shakllantirib, xorijiy mamlakatlarga qisqa muddatli tanishtiruv-stajirovka kurslarini tashkil etish choralarini ko'rsin.

Belgilansinki, tanishtiruv-stajirovka kurslarini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar Jamg'arma mablag'lari hisobidan qoplansin.

19. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi:

2022-yil 1-dekabrga qadar Fanlar akademiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan hamkorlikda respublikadagi seysmik faol, o'rta faol va tinch hududlar hamda maydonlarni o'zida mujassamlashtirgan interaktiv onlayn-xaritani ishlab chiqsin;

2023-yil 1-avgustga qadar seysmik faol zonalarda joylashgan bino va inshootlar maydonining zilzilalar oqibatida deformatsiyasi, siljishi, cho'kishi kabi omillarni aniqlashga mo'ljallangan radiolokatsion kosmik monitoring tizimini yaratsin.

20. Fanlar akademiyasining Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti uchun ajratilgan yer maydonida alohida ma'muriy va laboratoriya binosini qurish, mavjud bino va inshootlarni mukammal ta'mirlash hamda jihozlash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Fanlar akademiyasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga mazkur bandda nazarda tutilgan qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlarini 2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish bo'yicha takliflarni taqdim etsin.

21. Jamg'arma hisobidan moliyalashtiriladigan xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan laboratoriya asbob-uskunalarini, hisoblash texnika vositalari hamda butlovchi materiallarini qabul qiluvchi tashkilotlar bojaxona to'lovlaridan (bojaxona rasmiylashtirushi yig'imlari bundan mustasno) 3 yil muddatga ozod qilinsin.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjalariiga **3-ilovaga** muvofiq qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilsin.

23. Fanlar akademiyasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Qurilish vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjalariга ushbu Farmonidan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

24. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkillashtirishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib favqulodda vaziyatlar vaziri A.X. Qo'ldoshev, qurilish vaziri B.I. Zakirov, suv xo'jaligi vaziri Sh.R. Xamrayev va Fanlar akademiyasi prezidenti B.S. Yuldashev belgilansin.

Farmon ijrosi uchun mas'ul idoralalar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijadorligi to'g'risida har yarim yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 30-may,
PF-144-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-144-son Farmoniga

1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini 2025-yilgacha takomillashtirish

KONSEPSIYASI 1-bob. Umumiy qoidalari

O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini 2025-yilgacha takomillashtirish konsepsiysi (keyingi o'rnlarda — Konsepsiya)ning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash to'g'risida"gi **Qonuni** hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 30-iyuldaggi PQ-4794-son **qarori** ijrosini ta'minlash hisoblanadi.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi rejalarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlat siyosati mamlakat,

mintaqalar va tarmoqlar bo'yicha dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlash va ilmiy-texnik resurslardan samarali foydalanish orqali tarmoq salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan.

Konsepsiya jahon tendensiyalarini o'rganish asosida O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini 2025-yilgacha takomillashtirish maqsadlarini, vazifalarini va asosiy yo'nalishlarini, fan va texnika yutuqlari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosidagi ustuvor tadbirlarni isloh qilish yo'nalishlarini belgilaydi.

2-bob. O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlashning strategik maqsadlari

Konsepsiyaning strategik maqsadlari respublikaning seysmik faol zonalarida istiqomat qilayotgan aholini, har xil turdagи bino-inshootlarni va muhandislik infrastrukturalarni seysmik xavfdan himoya qilishning strategik yo'nalishlarini aniqlagan holda 2025-yilgacha ilmiy-amaliy, dasturiy va tashkiliy ishlarni belgilash va amalga oshirishdan iborat. Konsepsiyaning amalga oshirilishi, kelajakda O'zbekistonning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va favqulodda hodisalarda mavjud resurslarning oqilona taqsimlanishiga imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlashning strategik vazifalari quyidagilardan iborat:

aholining barcha qatlamini zilziladan oldin, zilzila paytida va zilziladan so'ng harakat qilish qoidalariga o'rgatish va ularning tayyorgarligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish;

seysmik xavfni, ta'sirni va xatarni baholashni xorijiy tajriba asosida amalga oshirish uchun ilmiy-amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish hamda ular asosida normativ-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

seysmik faol zonalarda turli darajadagi seysmik xatarni baholash va zilzila talafotlarini kamaytirishning ilmiy asoslangan chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

shahar hududlari bosh loyihasini ishlab chiqishni seysmik mikrohududlashtirish xaritalarga asoslangan holda amalga oshirish;

konstruksiylar mustahkamligi, binolar, inshootlar va kommunikatsiyalarning zilzilabardoshligi sohasida fundamental, amaliy, innovatsion va investitsion loyihalarni kengaytirish, zilzilabardosh qurilish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqish va amaliyatga keng tatbiq etish;

inshootlarning zilzilabardoshligi va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasida ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqish, ularni seysmik xavfsizlik sohasiga joriy etishni ta'minlash;

ehtimoli yuqori bo'lgan zilzilalarning zararini va oqibatlarini kamaytirish bo'yicha mahalliy sharoitlarga bog'lab tayyorlangan tadbirlar majmuasini ishlab chiqish. Bino va inshootlarni seysmik himoyalash uslublarini, yangi konstruktiv yechimlarini ishlab chiqish, hududlarning seysmik xavfsizligini ta'minlash uchun amaliy masalalarni hisoblash;

suv omborlari to'g'onlari va gidrotexnika inshootlarining zilzilabardoshligini monitoring qilish tizimini yaratish;

Respublika hududlarining seysmik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlanishini tezlashtirish uchun maqbul bo'lgan qonuniy, investitsion va infrastruktura muhitini yaratish;

seysmik xavfsizlik sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy xodimlarni yetakchi xorijiy ilmiy markazlarda va ishlab chiqarish korxonalarida malakalarini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

3-bob. O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari

1§. Seismologiya yo'nalishi

So'nggi yillarda seismologiya sohasida O'zbekiston olimlari asosiy fundamental g'oyalarini va amaliy ilmiy izlanishlarini aholi va hududlarni seysmik xavfdan himoya qilish bo'yicha aniq maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishga qaratgan.

Bugungi kunda respublika aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash va zilzila sodir bo'lismi ehtimoli yuqori bo'lgan seysmik faol zonalarda zilzilalarga oldindan tayyorlanish orqali talafotlarni kamaytirish ko'p jihatdan respublikaning strategik rivojlanishini belgilaydi.

Seismologiya sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar zilzila tabiatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bunda zilzila darakchilarining namoyon bo'lismi qonuniyatlarini aniqlashga, zilzila o'chog'i mexanizmlari va parametrlari bo'yicha seysmik to'lqinlarning tarqalishi va ularning geologik muhitdagi xususiyatlarini o'rganishga, turli darajadagi seysmik faol yer yoriqlarida zilzilalarning hosil bo'lismi o'choqlarining joylashishidagi o'rnini aniqlashga, seysmik xavfni mintaqaviy o'zgarishini va seysmik tebranishlarni arning yuza

qismidagi grunt sharoitiga qarab o'zgarishini va masofa bo'ylab so'nishini hamda hududlarning turli darajadagi seysmik xatarini baholashga yo'naltirilgan.

Ma'lumki, seysmologiya sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar iqtisodiy sohalardagi dolzarb amaliy muammolarni hal qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu tadqiqotlar negizida respublikaning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega amaliy muammolar hal qilinmoqda. Bular bino va inshootlarni loyihalash va qurish uchun muhim bo'lgan seysmik xavfning miqdoriy qiymatlarini mujassamlashtirgan holda turli darajada seysmik hududlashtirish (umumiylar va mufassal seysmik hududlashtirish hamda seysmik mikrohududlashtirish) xaritalari, seysmik hududlarda qurilish ishlarini olib borishning me'yirlari va qoidalari (QMQ 2.01.03-19 "Zilzilaviy hududlarda qurilish"), zilzilalar kuchini aniqlash shkalasi, respublika hududida joylashgan turli kattalikdagi seysmik faol yoriqlar va seysmogen zonalarning xaritalaridir.

Seysmologiya sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

zilzilalarni vujudga kelish mexanizmi va tabiatini hamda zilzila darakchilarini turli geodinamik jarayonlarda namoyon bo'lismeni tadqiq qilish asosida zilzilalar paydo bo'lish mexanizmining takomillashtirilgan modelini yaratish;

umumiylar seysmik hududlashtirish xaritasining jahon talablari darajasidagi takomillashtirilgan ko'rinishini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llanilayotgan me'yoriy hujjalarga o'zgartirishlar kiritish;

O'zbekiston hududidagi turli darajadagi tektonik yer yoriqlarining o'rta mashtabdagisi xaritasini yaratish va ularning seysmik potensialini baholash;

jahon tajribasidan kelib chiqib shaharlar hududini makroseysmik ballarda va muhandislik ko'rsatkichlarda seysmik mikrohududlashtirish onlayn-xaritalarini ishlab chiqish va ularni bino-inshootlarni loyihalash, qurish hamda rekonstruksiya qilish uchun me'yoriy hujjat sifatida ro'yxatdan o'tkazish;

sohada ilg'or tajribaga ega xorijiy davlatlarning ilmiy va amaliyotchi olimlari bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

aholi va hududlarning seysmik xavfsizligini ta'minlash maqsadida turli mashtablarda seysmik xavfni, seysmik ta'sirni va seysmik xatarni baholashning geoaxborot texnologiyalari asosidagi metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish.

2§. Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini ta'minlash yo'nalishi

Zamonaviy mexanika fanining rivojlanishi va undan kelib chiqadigan qurilish fanlari bino va inshootlarning qurilish me'yorlari va qoidalari asosida seysmik ta'sirlarga mustahkamligini hisoblash imkonini beradi. Biroq, seysmik ta'sirlarga mustahkamligini hisoblashning me'yoriy uslublari gidrotexnika inshootlari, yer osti kommunikatsiyalari, yo'l o'tkazgichlar, yer usti inshootlari, qiyaliklar, yon bag'irlar va boshqa inshootlarni bir o'chamli modellar asosida hisoblashga asoslangan bo'lib, inshootning dinamik ta'sirlarda fazoviy o'zini tutishini to'la aks ettirmaydi, inshoot materialining bir jinsli emasligini, konstruksiya elementlarining o'zaro ta'sirini e'tiborga olmaydi.

Shunga qaramay, ilm-fanning rivojlanishi bilan amaliyotda materialning anizotropligini yaqqol aks ettiruvchi turli xil kompozitsion materiallar qo'llanilmoqda.

Zilzilabardosh qurilish nazariyasi va amaliyotida hisoblashlar hamda nazariy g'oyalarni katta masshtabdagi tajriba sinovlar yordamida tekshirishlardan o'tkazish lozim. Bu bino va inshootlarning zilzilabardoshligini hamda aholi xavfsizligini ta'minlash maqsadida xalqaro umumqabul qilingan usul hisoblanadi.

Inshootlarga seysmik ta'sirlar gruntning tebranishi orqali o'tadi va bu jarayon inshootlarning grunt bilan o'zaro ta'siri hamda boshqa bir qator o'ziga xosliklari bilan xarakterlanadi. Zilzilaning intensivligi zilzila o'chog'idan chiqqan energiya miqdoriga, muhitning tuzilishiga va grunt sharoitiga, muhitning elastiklik xossasiga, inshootning dinamik xossalari (xususiy tebranish davri, zichligi, va boshqalar)ga bog'liqdir.

Yer usti inshootlari uchun eng ko'p tarqalgan hisoblash sxemalaridan biri ko'p massali konsol va sterjen sxemasi hisoblanadi. Konstruksianing fazoviy tebranishini hisobga olish jarayoni sifatida ma'lum bikirlikda birikkan bir necha yig'ilgan massalardan tashkil topgan tizimning tebranishi namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, inshootlarning egilishdagi tebranishiga ishlaydigan balka ko'rinishidagi modellar ham mavjud.

Kuchli zilzila natijasida binolarning strukturaviy shikastlanishi va buzilishining tahlili hisoblash uslublari hamda modellashtirishda turli kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi masalalarni o'rganish bino va inshootlarning kuchli zilzila ta'sirida buzilishi hamda shikastlanishini kuzatish bilan bog'liqdir. Seysmik ta'sirlarda inshoot tebranishining xususiy chastotasi yuklamalar chastotasiga teng bo'lsa, inshootning

zararlanishiga olib keluvchi rezonans rejimi vujudga kelishi mumkin. Shuning uchun, seysmik ta'sirlarda bino reaksiyasini shu tipdagi cheklanishlar bilan hisobga olish bino va inshootlarning zilzilabardoshligini ta'minlashning muhim jihatlari hisoblanadi.

Fazoviy hisoblash modellaridan foydalanib inshootning dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini o'rganish inshootlarning fazoviy holatini, konstruktiv yechimlarning o'ziga xosligini, konstruksiya elementlarining o'zaro ta'sirini, yuk ko'taruvchi konstruksiyalarning zaiflashishini va bir jinsli emasligini hisobga olish imkonini beradi.

Gidrotexnika inshootlarining turli xil ko'rinishdagi yuklamalarda (statik, dinamik yoki seysmik) kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati va dinamik o'zini tutishini ilmiy o'rganish tekis va fazoviy masalalarni hisoblash modellaridan foydalanib amalga oshiriladi. Bundan tashqari, grunt to'g'onining mustahkamligi va ustuvorligini aniqlashda yon bag'irlarning ustuvorligini ta'minlashda katta rol o'ynaydigan gruntning filtrlash xususiyatlarini hisobga olish lozim bo'ladi.

Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini ta'minlash sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

yakka tartibdagi uy-joylarning zilzilabardoshligini ta'minlash bo'yicha zarur choralarni ko'rish;

zilzilabardoshlikni ta'minlashda aholi xabardorligini oshirish bo'yicha zarur choralarni belgilash;

binolarning zilzilabardoshligini ekspress aniqlash usullarini joriy qilish;

davlat ahamiyatiga ega yirik bino va inshootlar zilzilabardoshligining doimiy monitoringini olib borish hamda ularni tez, sodda va kamchiqim metodlar orqali kuzatib borishning yagona elektron bazasini shakllantirish;

seysmik faol zonalarda joylashgan bino va inshootlar maydonining zilzilalar oqibatida yuz bergen deformatsiyasi, siljishi, cho'kishi kabi omillarni aniqlashga mo'ljallangan radiolokatsion kosmik monitoring tizimini joriy etish;

suv omborlari to'g'onlarining zilzilabardoshlik darajasini doimiy kosmik monitoring qilish tizimini yaratish;

zamonaviy kompyuter dasturiy ta'minotlarini mahalliy me'yoriy hujjatlar bazasiga integratsiya qilgan holda bino va inshootlarning zilzilabardoshligini ta'minlash bo'yicha vazifalarni amalga oshirish.

3§. Seysmologik kuzatuvlar tarmog‘ini takomillashtirish yo‘nalishi

Hozirgi kunda respublikada seysmologik kuzatuvlar tarmog‘ida 40 ta seysmik stansiya mavjud bo‘lib, ularning 24 soat uzluksiz ishlashi ta’minlangan.

Seysmik stansiyalarning 15 tasi qoyali tosh jinslarida, 24 tasi yumshoq yaxlit jinslarda, 1 tasi yumshoq yaxlit bo‘lmagan jinslarda joylashgan. Ushbu stansiyalarning 11 tasida keng polosali yuqori sezuvchan seysmometr, qolgan stansiyalarda qisqa davrli past shovqinli seysmometrlar o‘rnatalgan.

Respublika hududini kompleks monitoring qilish maqsadida, Seysmoprogностик monitoring respublika markazida 10 ta kompleks-prognostik stansiya hamda magnitometrik kuzatuv punktlari mavjud.

Shu bilan bir qatorda, seysmik kuzatuvlar tarmog‘ida quyidagi muammolar mavjud:

seysmik kuzatuvlar tarmog‘i to‘liq avtomatlashtirilmagan;

seysmik kuzatuvlar tarmog‘i xalqaro monitoring tarmoqlariga integratsiya qilinmagan;

mavjud stansiyalarning aksariyat qismi xalqaro standartlarga mos kelmaydi;

respublika hududini to‘liq monitoring qilish ko‘rsatkichi past;

14 ta stansiya shaharlar markazida joylashgan bo‘lib, bu hududlarda xalaqit qiluvchi to‘lqinlar darajasi yuqori hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, seysmologik kuzatuvlar sohasidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

xalaqit qiluvchi to‘lqinlar darajasi past bo‘lgan seysmik stansiyalarda Internet tarmog‘ining uzluksiz ishlashini ta’minlash;

stansiyalar joylashuvi respublikaning muhim obyektlari atrofida bo‘lishini ta’minlash;

keng polosali yuqori sezuvchan seysmometrlar sonini oshirish va to‘liq tarmoqni qoplash imkoniyatini yaratish;

mavjud seysmometrlar va registratorlarni texnik parametrlarga muvofiqlashtirish choralarini ko‘rish;

qo‘shni respublikalar seysmik stansiyalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumotlar almashish tizimini takomillashtirish;

milliy seysmik kuzatuvlar tarmog‘ining xalqaro seysmik kuzatuvlar global tizimiga kiritilgan stansiyalar bilan doimiy aloqalarini ta’minlash;

avtomatlashtirish kompleks-prognostik stansiyalar sonini ko'paytirish hisobiga respublika hududini to'liq monitoring qilish imkoniyatini kengaytirish;

kuzatuv punktlarining asosiy qismini yer yoriqlari kesishmasida joylashtirish;

raqamli proton magnitometrlarning sonini oshirish;

kompleks-prognostik stansiyalarning asosiy qismini kuzatuv quduqlari hududida joylashtirish;

neft-gaz va og'ir sanoat, kon metallurgiya obyektlarining faoliyati natijasida zaminda ro'y berayotgan o'zgarishlarni kuzatib borish tizimini yaratish.

4§. Seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruveni organlari faoliyatini muvofiqlashtirish yo'nalishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagagi "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4794-son [qaroriga](#) muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi tuzilmasining IT-texnologiyalar, telekommunikatsiyalar va ilmiy faoliyatni rivojlantirish masalalari departamenti tarkibida Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini muvofiqlashtirish shu'basi (keyingi o'rnlarda — Shu'ba) tashkil etildi hamda Shu'baning asosiy vazifalari belgilab berildi.

Bugungi kunda Shu'ba seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi mas'ul davlat organlari va tashkilotlari bilan doimiy faoliyat olib bormoqda.

Jumladan:

Favqulodda vaziyatlar vazirligining zilzilalar vaqtida aholi tomonidan tegishli harakatlar va tadbirlar amalga oshirilishi, seysmoprogностик monitoring amalga oshirilishini tashkil etish hamda kuchli va talafotli zilzilalar sodir bo'lishi xavfi mavjud bo'lganida ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi;

Qurilish vazirligining qurilayotgan binolar va inshootlarning seysmik xavfsizligi ta'minlanishini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash hamda nazorat qilish, shuningdek, mavjud binolar va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish sohasidagi;

Fanlar akademiyasining seysmik xavfni turli masshtablarda baholash, seysmik jihatdan hududlashtirish, zilzilalarni vaqt kesimida

prognoz qilish, binolar va inshootlarning zilzilabardoshligini ta'minlash bo'yicha uslubiyotlarni ishlab chiqish, hududlarning seysmik xavfi va seysmik xatariga doir turli mashtabli xaritalarini tuzish sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirmoqda.

Hozirda seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, uni davlat tomonidan tartibga solish hamda qo'shimcha vazifalarni bajarish uchun Shu'ba faoliyat yo'naliшlarini kengaytirish zarurati mavjud.

Seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi mas'ul davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish samaradorligini oshirish uchun Shu'ba quyidagi sohalar yo'naliшlarida salohiyatli kadrlarga ega bo'lishi lozim:

seysmologiya sohasida ilm-fan va ta'limni rivojlantirish hamda Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tartibga solish;

aholi va davlat organlarini zilzilada harakat qilishga tayyorlash hamda seysmoprogностик monitoring qilish;

respublika hududida qurilayotgan bino va inshootlarning zilzilabardoshligini ta'minlash hamda nazorat qilish (hududlar bo'yicha) tizimini takomillashtirish;

suv omborlari va gidrotexnika inshootlarining zilzilabardoshligini ta'minlash;

seysmik xavfsizlik sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish;

bino va inshootlarning zilzilabardoshligini elektron texnik pasportlar asosida monitoring qilish hamda ularni mustahkamlash.

4-bob. Konsepsiyaning amalga oshirilishidan kutilayotgan natijalar

Konsepsiyaning amalga oshirilishi seysmologiya, inshootlar seysmik mustahkamligi va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini yanada rivojlantirishga hamda keljakda O'zbekistonning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va favqulodda hodisalarda mavjud resurslarning oqilona taqsimlanishiga imkon beradi.

Konsepsiya rejalashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida quyidagilar kutilmoqda:

aholi barcha qatlaming bo'lishi mumkin bo'lgan zilzilalarga tayyorgarligi oshiriladi va kuchli zilzilada aholi o'rtaидаги о'лим ko'rsatkichi va moddiy zarar qiyomatining sezilarli darajada kamayishiga erishiladi;

kuchli zilzilalarning uzoq, o'rta va qisqa muddatli darakchilarini aniqlovchi majmualarni tayyorlashning yangi modeli yaratiladi;

er qobig'idagi lokal seysmik faol tektonik yoriqlarning texnogen kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini baholaydigan miqdoriy modellar ishlab chiqiladi;

O'zbekiston hududining o'rta masshtabli seysmik potensiali baholangan turli darajadagi yer yoriqlarining xaritasi ishlab chiqiladi;

mintaqaviy darajadagi seysmik xavfni baholashning ilmiy-uslubiy asoslari hamda O'zbekiston hududining mayda masshtabli seysmik xatar xaritasi ishlab chiqiladi va uning bazasida dasturiy ta'minot yaratiladi;

viloyat markazlarining yirik masshtablarda muhandislik ko'rsatkichlari bo'yicha ishlab chiqilgan seysmik mikrohududlashtirish xaritalari ishlab chiqiladi;

o'ta noyob va muhim ahamiyatga ega bo'lgan hamda yuqori qavatli bino va inshootlarning seysmik xatarini baholash va uni monitoring qilish metodikasi ishlab chiqiladi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kesimida bosqichma-bosqich seysmik xatar baholanadi va ularning hududi uchun 1:200 000 masshtabda seysmik xatar xaritasi ishlab chiqiladi;

bino va inshootlarning texnik holatini baholashning zamonaviy uslublari ishlab chiqiladi va ularni texnik holati tadqiq qilinadi;

jamoat, turarjoy, sanoat binolari va inshootlari uchun seysmik xavf baholanadi;

O'zbekiston Respublikasidagi eng seysmik faol, o'rta faol va tinch hududlar hamda maydonlarni o'zida mujassamlashtirgan interaktiv onlayn xarita ishlab chiqiladi;

seysmik faol zonalarda joylashgan bino va inshootlar maydonining zilzilalar oqibatida deformatsiyasi, siljishi, cho'kishi kabi omillarni aniqlashga mo'ljallangan radiolokatsion kosmik monitoring tizimi joriy etiladi;

suv omborlari to'g'onlarining zilzilabardoshligini tadqiq etish doimiy kosmik monitoring qilish tizimi orqali amalga oshiriladi;

geoaxborot texnologiyalarini qo'llagan holda zilzila natijasida to'g'on o'pirilishi oqibatida suv bosishi mumkin bo'lган hududlarning vizual modellari yaratiladi;

zilzila natijasida suv omborlari to'g'onlari o'pirilishi oqibatida qutqaruv ishlarini tashkillashtirishida tegishli vazirlik va idoralarni zarur kosmik suratlar hamda ishlov berilgan ma'lumotlar bilan ta'minlash tizimi yaratiladi;

hayotni ta'minlovchi tizimlarni seysmik mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqiladi, inshootlarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonida foydalanish uchun loyiha tashkilotlariga tarqatiladi;

seysmik va kompleks-prognostik kuzatuvarlar tarmog'i to'liq avtomatlashtiriladi va jahon talablariga mos ravishda takomillashtiriladi;

seysmik stansiyalar tarmog'i optimallashtiriladi, respublika bo'yicha ikki va undan yuqori ($M \geq 2,0$) magnitudali zilzilalarni qayd etish imkonini beruvchi tarmoq yaratiladi;

respublikadagi muhim obyektlar hududlarini lokal seysmik va kompleks monitoring qilish imkoniyati yaratiladi. Yangi tizimda obyektlar joylashuvi hisobga olingan holda kuzatuv stansiyalari joylashtiriladi;

seysmik kuzatuvarlar tarmog'i xalqaro monitoring tarmoqlariga integratsiyalanadi va xalqaro talab darajasidagi kuzatuvarlar tarmog'i yaratiladi;

kuzatuv punktlari sonining ko'payishi prognoz ma'lumotlarining sifati va aniqlik darajasini oshiradi;

prognoz yo'nalishlari jahon tajribasini o'rgangan holda kengaytiriladi, qo'shimcha kuzatuv usullari (erning deformatsiyalanganligi, GPS kuzatuvarlar va hokazo) o'zlashtiriladi va prognoz yo'nalishiga tatbiq etiladi, prognoz sifat darajasi oshiriladi;

mahalliy xomashyodan xususiy uylarning (individual binolarni) elementar usulda zilzilabardoshligini oshirish bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqiladi;

Seysmoprogностик monitoring respublika markazining seysmik va kompleks prognostik stansiyalari bilan prognoz ma'lumotlar almashinuvি jarayoni raqamlashtiriladi;

Seysmoprogностик monitoring respublika markazining raqamlashtirilgan seysmik kuzatuvarlar hamda kuchli zilzilalarni qayd etish tarmog'i yaratiladi;

zamonaviy asbob-uskunalarda o'tkazilgan gidrogeoseysmologik tajribalar asosida gidrogeodinamik maydonlardagi anomal o'zgarishlarga asosan o'rta va uzoq muddatli

zilzila darakchilarini aniqlashning zamonaviy raqamli (avtomatlashgan) usuli yaratiladi;

kuchli zilzilalar (o'rta va qisqa muddatli, makon va zamon bo'yicha) to'g'risida darak beruvchi majmualarni tayyorlashning yangi modeli yaratiladi va zilzilaning namoyon bo'lish qonuniyatlari ishlab chiqiladi;

fuqarolar uchun zilzila vaqtida tegishli harakat va tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha uslubiy qo'llanma hamda video roliklar tayyorlanadi;

respublikaning seysmik faol zonalarida qurilayotgan besh qavatdan yuqori tanlangan binolarni tabiiy (vibrodinamik uskuna, raqamlashtirilgan instrumental asbob-uskunalar va boshqalar yordamida) sinovdan o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yiladi;

Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti bazasida qurilish konstruksiyalarini dinamik sinovlardan, modellashtirilgan bino va inshootlarni seysmoplatforma yordamida eksperimentdan o'tkazishga mo'ljallangan zamonaviy laboratoriya tashkil etiladi;

tegishli oliy ta'lif tashkilotlari seysmik xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlarida kadrlar tayyorlashni amalga oshiradi hamda zarur asbob-uskunalar, hisoblash texnika vositalari hamda butlovchi materiallar bilan ta'minlanadi;

seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi mas'ul davlat organlari va tashkilotlarining sohaga oid faoliyat yo'nalishi bo'yicha moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlari ishlab chiqiladi, shuningdek, konferensiylar, seminarlar va boshqa tadbirlar, shu jumladan xorijiy mamlakatlarda stajirovkalar tashkil etiladi;

respublikaning seysmik faol zonalarida qurilayotgan bino va inshootlarni zilzila kuchini so'ndiruvchi qurilmalar bilan jihozlash hamda zilzilabardoshligini oshiruvchi yangi innovatsion qurilish materiallari bilan qurish amaliyoti yo'lga qo'yiladi;

aholining bo'lishi mumkin bo'lgan zilzilalarga tayyorgarligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar majmui ishlab chiqiladi va muntazam seminar-treninglar o'tkaziladi;

respublikaning seysmik faol zonalarida joylashgan maktabgacha, umumiyo'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lif

tashkilotlari, shuningdek, tibbiyot muassasalarining bino va inshootlari bosqichma-bosqich instrumental tekshiruvdan o'tkaziladi;

ko'priklar, transport tonnellari, yo'llar, metropolitenlar, yer osti inshootlari va boshqa tizimlarning seysmik zaifligini nazorat qilish uchun elektron texnik pasportlar (elektron (raqamli) ma'lumotlar bazasi)ni shakllantirish amaliyoti joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-144-son Farmoniga

1a-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini 2025-yilgacha takomillashtirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlari va indikatorlari

T/r	Maqsadli ko'rsatkichlar	O'lcov birligi	Indikatorlar (yillar kesimida)				
			Jami	2022	2023	2024	2025
1.	Jahon tajribasidan kelib chiqib muhandislik ko'rsatkichlarida tuzilgan seysmik mikrohududlashtirish xaritalariga ega respublika shaharlarining sonini oshirish.	ta	24	3	6	7	8
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar tumanlari va shaharlari hamda Toshkent shahar tumanlari kesimida seysmik xatarning baholanganlik sonini oshirish.	ta	208	40	50	55	63
3.	Bino va inshootlar hamda ularning konstruksiyalarini seysmik kuchlar ta'siriga mustahkamlik, bikrlik va ustuvorlik talablari bo'yicha baholash (sinov) ishlarini bajarish uchun tajriba-sinov laboratoriyalari sonini ko'paytirish.	ta	10	2	2	3	3
4.	Bino va inshootlarning haqiqiy o'lcovdagi konstruksiyalarini murakkab kuchlanish (bir vaqtning o'zida cho'zilish-siqilish, egilish, siljish va buralish) holatida mustahkamligi va zilzilabardoshligini aniqlash bo'yicha sinov ishlarini amalgalash oshirish.	ta	18	2	3	5	8
5.	Seysmologiya, bino va inshootlar seysmik mustahkamligi va seysmik xavfsizlik sohasidagi chet el журнallarida (Web of Science va Scopus) respublika olimlarining chop etilgan maqolalari sonini oshirish.	ta	250	40	60	70	80
6.	Seysmologiya, bino va inshootlar seysmik mustahkamligi va seysmik xavfsizlik sohasida ilmiy darajali xodimlar sonini hamda himoya qilingan dissertatsiyalar (PhD, DSc) sifatini oshirish.	ta	100	15	25	30	30
7.	Seysmik xavfsizlik sohasida faoliyat olib borayotgan kadrlarni jahonning yetakchi	nafar	150	30	40	40	40

	institutlari va markazlariga malaka oshirish hamda stajirovka o'tash uchun yuborish.						
8.	Seysmik xavfsizlik bo'yicha jahoning ilg'or tashkilotlari mutaxassislari ishtirokida seminar va konferensiylar tashkil etish.	ta	14	2	3	4	5
9.	Keng polosali seysmometrlar tarmog'ini kengaytirish (25 ta keng polosali seysmometr o'rnatish).	ta	25	4	6	7	8
10.	Seysmik stansiyalar tarmog'ini optimallashtirish, respublika bo'yicha ikki va undan yuqori ($M \geq 2,0$) magnitudali zilzilalarni qayd etish imkonini beruvchi yangi stansiyalar ochish.	dona	14	2	3	4	5
11.	Magnitometrik kuzatuvlar tarmog'ini kengaytirish (Respublika bo'yicha qo'shimcha 15 ta magnitometr o'rnatish).	dona	15	2	3	4	6
12.	Gidrogeoseysmologik kuzatuvlar tarmog'ini kengaytirish.	dona	20	3	4	6	7
13.	Seysmoprogностик monitoring respublika markazida ishlovchi muhandis va texnik xodimlarning zamonaviy ilmiy asbob-uskunalar bilan ishlash va dasturlardan foydalanish bo'yicha malakasini oshirish.	nafar	100	10	20	30	40
14.	Qo'shni respublikalar bilan ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish (20 ta stansiya bo'yicha).	dona	20	3	4	6	7
15.	Magnitometrik kuzatuv punktlarini to'liq raqamli magnitometrlar bilan ta'minlash.	dona	15	2	3	4	6
